

## 2018 yil yanvar-may oylarida Qurilish ishlari


### RAQAMLAR:

- Qurilish-montaj ishlari hajmi – **780,9 mlrd. so'm**
- Yirik qurilish pudrat tashkilotlarining ulushi - **17,2 foiz**
- Kichik korxonalar va mikrofirmalar – **52,8 foiz**
- Qurilishda norasmiy sektorning ulushi – **30,0 foiz**


Joriy yilning yanvar-may oylari bo'yicha Surxandaryo viloyatida 780,9 mlrd. so'mlik qurilish-montaj ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 96,1 foizni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-mayiga nisbatan 9,0 foiz punktga kamaydi.


Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 134,2 mlrd.so'mni yoki 146,3 foizni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 41,9 foiz punktga oshdi.

### **Qurilish ishlari (mlrd.so'm)**



Kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi jami qurilish ishlarining 52,8 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,9 % ni tashkil etdi. Kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar asosan sotish uchun turar joylar qurishi, avtomobil yo'llarini yangi qurilishi, rekonstruksiya va ta'mirlash, ijtimoiy soha obyektlari (maktablar, maktabgacha ta'lim muassalari), namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy joylar qurilishida o'z faoliyatlarini amalga oshirmoqda.






## Mulkchilik shakllari

### Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 762,3 mldr.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 97,6 foizini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,9 foiz punktiga kamaydi.

### Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari (foizda)



*Surxondaryo viloyati  
statistika boshqarmasi  
Investitsiya va qurilish  
statistikasi bo'limi*

*Nashr uchun mas'ul:*

*Sh.Gaipov*

*Aloqa telefoni:*

*(0371) 230-85-79*